Annotatsiya: Ushbu maqolada respublikamiz uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan sanoat taraqqiyotida ishlab chiqarish korxonalarini ustuvor rivojlantirish istiqbollari yoritib berilgan. Sanoat taraqqiyotida ishlab chiqarish korxonalarini rivojlantirish zaruriyati sifatida mamlakat aholisini bandligini ta'minlash bilan bir qatorda, yildan-yilga aholining o'sib borayotgan ehtiyojlarini ta'minlashda sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari hajmi statistik ko'sat-kichklar asosida tahsilii o'rganilgan. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni yaxshilash natijasida ichki bozorni ta'minlash bilan birga sanoat mahsulotlarini eksportga yo'naltirish orqali sanoat taraqqiyotini ustuvor rivojlantirish masalalari o'rganib chiqilgan holatda taklif va tavsiyalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: sanoat taraqqiyoti, sanoat mahsulotlari, sanoat rivoji, sanoat ishlab chiqarish indeksi, sanoatda qayta ishlash korxonalari, import va eksport rivoji.

Abstract: This article highlights the prospects for the rapid development of manufacturing enterprises in industrial development, which are important for our republic. In addition to ensuring employment of the country's population as a necessity for the development of manufacturing enterprises in industrial development, the volume of industrial products produced by industrial enterprises to meet the needs of the population growing from year to year is analytically studied on the basis of statistical indicators. As a result of improving the production of industrial products, as well as ensuring the domestic market, issues of advanced development of industrial development by directing industrial products for export were studied, proposals and recommendations were made.

Key words: industrial development, industrial products, industrial development, industrial production index, industrial processing enterprises, development of imports and exports.

Аннотация: В данной статье освещены перспективы опережающего развития производственных предприятий в промышленном развитии, имеющих важное значение для нашей республики. Помимо обеспечения занятости населения страны как необходимости развития производственных предприятий в промышленном развитии, на основе статистических показателей аналитически изучен объем промышленной продукции, производимой промышленными предприятиями для удовлетворения растущих из года в год потребностей населения. В результате совершенствования производства промышленной продукции, а также обеспечения внутреннего рынка изучены вопросы опережающего развития промышленного развития путем направления промышленной продукции на экспорт, даны предложения и рекомендации.

Ключевые слова: промышленное развитие, промышленная продукция, промышленное развитие, индекс промышленного производства, промышленно-перерабатывающие предприятия, развитие импорта и экспорта.

KIRISH

Har bir mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotida sanoatning tarmoq va korxonalari o'ziga ahamiyatga ega. Shu jihatdan, bugungi kunda respublika aholisi farovonligini oshirish, mamlakatda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmini oshirishda sanoat tarmoqlari va unda faoliyat yuritayotgan korxonalarining ham o'ziga o'rni mavjud. Respublikamiz sanoat taraqqiyotida ishlab chiqarish korxonalarini ustuvor rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni yanada jadallashtirish va sanoat rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratib berish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmonida bevosita “Yangi O'zbekiston - raqobatbardosh mahsulotlar yurti” g'oyasi asosida 200 ta eksportchini ochiq tanlov asosida saralab, ularni yetakchi eksportyorlarga aylantirish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash. Eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 baravar ko'paytirib, Yevropa davlatlariga GSP+tizimi doirasida tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirish” ga qaratilgan



talablaridan kelib chiqib, erkin iqtisodiy zonalarda tovarlar raqobatbardoshligini ta'minlash asosida eksportni rivojlantirishning yangi mexanizmlarini amalga oshirish masalalari belgilab berildi^[1].

Milliy iqtisodiyotga xususan, mamlakatimiz sanoat taraqqiyotida ishlab chiqarish korxonalarini rivojlantirish borasida hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali sanoat taraqqiyotini ta'minlash maqsadida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish va sanoat tarmoqlariga xizmat ko'rsatish sohalarini kengaytirish orqali mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, doimiy ish o'rinalarini yaratish, ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini yanada yaxshilash va hududlarning eksport salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni izchil davom ettirish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-oktyabrdagi "Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-169-sonli Farmonida bevosita "Mamlakatda yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoat yo'nalishlarini jadal rivojlantirish, sanoat tarmoqlariga xususiy investitsiyalarni keng jalb etish orqali raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, hududlarda yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish hisobidan aholi daromadlarini oshirish hamda yirik tarmoqlarga ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan boshqaruv tizimini joriy etish" masalalari belgilab berildi^[5].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-noyabrdagi "Ayrim sanoat tarmoqlarida sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-198-sonli Farmonida "Eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hisobidan qandolatchilik korxonalariga eksportoldi va eksport bilan bog'liq savdo operatsiyalarini moliyalashtirish uchun oxirgi 12 oy mobaynida amalga oshirilgan eksport hajmidan kelib chiqqan holda 2 yil muddatgacha quyidagi miqdorlarda moliyaviy resurslar ajratilishi belgilab berildi, xususan: eksport hajmi 500 ming AQSh dollarigacha bo'lganda - 1 million AQSh dollarigacha; eksport hajmi 500 ming AQSh dollaridan 4 million AQSh dollarigacha bo'lganda - 2 million AQSh dollarigacha; eksport hajmi 4 million AQSh dollaridan ortiq bo'lganda - 3 million AQSh dollarigacha^[6].

Sanoat tarmoqlarini ustuvor darajada rivojlantirish borasida sanoat rivoji uchun investitsiya mablag'larini jalb qilish orqali turli investitsion-iqtisodiy loyihalarini amalga oshirish samaradorligini iqtisodiy jihatdan baholash masalalarga bo'lgan e'tibor ortdi. Sanoat korxonalarining investitsiya faoliyatini samaradorligini oshirish muammlarini hal qilish ko'p jihatdan ularni rivojlantirish va boshqarishning to'g'ri tanlangan strategiyasiga bog'liq masalalar borasida MDH olimlari ham o'z qarashlarini ilgari surgan^[7].

Xorijiy tadqiqotchilar ham jahon iqtisodiyotining eng rivojlanuvchi tarmoqlaridan biri sifatida sanoat tarmoqlarining moddiy ishlab chiqarish tarmog'i sifatida sanoat-o'zidan boshqa barcha tarmoq va sohalarning barqaror faoliyat yuritishida muhim tayanch hisoblanishi haqida tadqiqotlarda to'xtalib o'tgan^[8].

Sanoat korxonalari faoliyatini ustuvor rivojlantirish borasidagi ilmiy-tadqiqotlarni izchil davom ettirish muhim ahamiyatga ega. Shu bois, yuqoridaqgi tadqiqotlardan kelib chiqib xulosa sifatida aytish joizki, sanoat taraqqiyotida ishlab chiqarish korxonalarini ustuvor rivojlantirish orqali mamlakat aholisini zaruriy mahsulotlar bilan hamda aholini ish bilan ta'minlashda sanoatning ishlab chiqarish korxonalarini uzviy ishslashini ta'minlash dolzarb ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotni amalga oshirish borasida rasmiy statistik ma'lumotlar, taqqoslama tahliliy usullar, jadval va grafiklarni solishtirma tahlil qilish usullaridan keng foydalanilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining statistik ma'lumotlaridan tahlil uchun foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasining sanoat ishlab chiqarish imkoniyatlari va istiqbollarini iqtisodiy jihatdan baholash muhim hisoblanadi. Mamlakatimiz hududlarida joylashgan ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy salohiyatini aniqlash, ularni jamlash, tarmoqlar va iqtisodiyotning jami salohiyatini belgilashda zaruriy shart hisoblanadi. Chunki, korxonalarning ishlab chiqarish salohiyatini hisoblash sarflangan resurslarni, shuning bilan birga ishlab chiqarish resurslarini kelajakda qayta taqsimlash va oqilona investitsiya siyosatini amalga oshirish ushun zarur hisoblanadi.

2023-yilda respublika bo'yicha YAIM ning shakllanishida Toshkent shahri 17,1 % ulush bilan eng katta hissa qo'shdi. Toshkent va Navoiy viloyatlari 10,1 % va 7,7 % ko'rsatkichlari bilan keyingi o'rinalarni egallab turibdi. Respublika YAIM ini shakllantirishda eng kam ulush Sirdaryo viloyati (2,0 %), Qoraqalpog'iston Respublikasi (3,1 %) va Jizzax viloyatiga (3,1 %) to'g'ri kelgan¹.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi ma'lumotlari. stat.uz



Asosan, Toshkent shahrida YAHM hajmi 181 859,6 mlrd. soʻnni tashkil etdi va 2022-yil bilan taqqosla-ganda 9,3 % ga oʼsdi. Sanoat tarmog’ida 105,7 % (YAHM tarkibidagi ulushi – 30,0 %), qurilishda 101,1 % (9,1 %) va xizmatlar sohasida 112,6 % (60,9 %) oʼsish surʼatlari kuzatildi. Aholi jon boshiga YAHM 60 648,2 ming soʻnni tashkil etdi va n6,1 % ga oʼsdi.

Sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish masalasi eng avvalo sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligi bilan bogʼliqlikka ega. Maʼlumki, ishlab chiqarishni rivojlantirishda ikki xil omil: miqdor va sifat, ekstensiv va intensiv, yaʼni kengaytiruvshi (uzaytiruvshi) va zoʼr beruvshi, kushaytiruvshi omillar harakatda boʼladi. Bosh-qacha qilib aytganda, agar ishlab chiqarish sohasi kengaytirilsa, ekstensiv suratda kengaygan takror ishlab chiqarish boʼladi; agar yana ham koʼproq samara beradigan ishlab chiqarish vositalari qoʼllaniladigan boʼlsa, intensiv suratda kengaygan takror ishlab chiqarish yuzaga keladi.

Mamlakatimizda sanoat taraqqiyoti borasida hududlarda ishlab chiqarish korxonalarini majmuaviy jihatdan izchil rivojlantirishga qaratilgan va oʼz vaqtida qabul qilingan chora-tadbirlar sanoat tarmoqlarini barqaror surʼatlarda rivojlanish uchun zarur shart-sharoit yaratishga xizmat qildi. Bu esa, sanoat ishlab chiqarishi rivojlanishing sifatini oshirish uchun ijobjiy omil boʼldi. Keyingi yillarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning oʼsish surʼatlari yuqori boʼlib keldi.

Dastlab, sanoat tushunchasiga taʼrif beradigan boʼlsak, asosan sanoat – xomashyoni qayta ishslash, yer osti boyliklarini oʼzlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq isteʼmoli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmogʼi hisoblanadi. Soʼngi maʼlumotlarga koʼra, 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida respublika korxonalari tomonidan 655,8 trln. soʼmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʼlib, 2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 106,0 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi oʼzgarishini tavsiflovchi nisbiy koʼrsatkichdir.



1-rasm: Respublika sanoatida ishlab chiqarish tarmoqlari²

Respublikamiz hudularida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Navoiy viloyatida (95 361,7 ming soʼm), Toshkent shahrida (41 228,9 ming soʼm) hamda Toshkent viloyatida (34 990,5 ming soʼm) oʼrtacha respublika darajasi koʼrsatkichidan (18 011,0 ming soʼm) sezilarli darajada yuqoriligini koʼrsatmoqda.

Respublikamiz hudularida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat his-sasiga toʼgʼri kelib, 553,3 trln. soʼnni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 84,4 % ni tashkil etdi. 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida respublikada jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Toshkent shahri (18,9 %), Toshkent viloyati (16,1 %), Navoiy viloyati (15,5 %), Andijon viloyati (11,2 %) hamda Fargʼona viloyati (5,6 %) his-sasiga togʼri keldi. Shuningdek, oʼtgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Jizzax viloyatida (107,4 %), Andijon viloyatida (107,3 %) hamda Namangan (107,2 %) viloyatlarida kuzatildi³.

Respublikamizda 2024 yil holatiga koʼra 69,4 mingta sanoat korxonalari faoliyat koʼrsatmoqda, shundan 11,8 mingtasi (roʼyxatdan oʼtgan korxonalar umumiyligi sonining 17,0 % i) Toshkent shahriga, 7,8 mingtasi (11,2 %) Fargʼona viloyatiga, 7,3 mingtasi (10,5 %) Toshkent viloyatiga, 6,2 mingtasi (8,9 %) Samarqand viloyatiga va 5,5 mingtasi (7,9 %) Andijon viloyatiga toʼgri kelmoqda.

2 Oʼzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi maʼlumotlari. stat.uz

3 Oʼzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi maʼlumotlari. stat.uz



O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan jami korxonalar soniga nazar tashlaydigan bo'lsak, 2020-yilda 70 576 tani tashkil etgan bo'lsa 2023-yilga kelib 98 805 tani tashkil etgan holda 28 229 taga ko'paygan, biroq. 2024-yilga kelib 2023-yilga nisbatan keskin kamayish kuzatilgan. Jami faoliyat yuritayotgan korxonalari bo'yicha sanoat korxonalarining ulushi 14,3 foizni tashkil etadi.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi oxirgi 5 yil ichida deyarli o'sish tendensiyasi kuzatildi. Xususan, 2020-yilda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 9 605 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil holatiga ko'ra, 18 011 ming so'mni tashkil etgan holda 2020-yilga nisbatan 2 barobar o'sish kuzatilgan.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 553,3 trln. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 84,4 % ni tashkil etdi. 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida respublikada jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Toshkent shahri (18,9 %), Toshkent viloyati (16,1 %), Navoiy viloyati 15,5 %), Andijon viloyati (11,2 %) hamda Farg'ona viloyati (5,6 %) hissasiga tog'ri keldi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uychraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydal qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi. Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 55,2 trln. so'm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 8,4 % ga to'g'ri keldi.

Mamlakatimizda 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 553,3 trln. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 84,4 % ni tashkil etdi.



2-rasm: Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)⁴

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tar-moqning ulushi 1,4 % ni (2022- yilning yanvar-dekabr oylarida – 2,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 24,8 % (23,1 %), o'rta-quyi texnologiyali – 37,5 % (36,8 %), quyi texnologiyali 36,3 % (38,0 %) ni tashkil etgan.

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 22,4 % (2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,4 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 22,8 % (2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 106,4 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,4 % (2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,2 %) ga to'g'ri keldi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,6 % (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 8,2 % (2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 99,8 %) ni tashkil etdi.

Mamlakatimiz hudularida 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida respublikada 1 333,1 ming tonna avtomobil benzini (2022-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 6,0 % ga ko'paygan), 553,5 ming tonna kalava ip (5,5 % kamaygan), 263,0 mln. litr pivo mahsulotlari (21,0 % ga ko'paygan) hamda 1 128,0 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (35,1 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi ma'lumotlari. stat.uz



3-rasm: Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sur'ati⁵

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o'z ichiga oladi.

Mamlakatimizda 2023-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 11,8 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,2 % ga ko'paydi va ishlab chiqarish hajmi 65 174,7 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

XULOSA

Prezidentimiz tomonidan ta'kidlangan dolzarb masalalar sifatida mamlakatimizda sanoat kooperatsiyasini kengaytirish hisobiga, hududlarda 6 mlrd.dollarlik mahalliylashtirish loyihalarini amalga oshirish, hududiy investitsiya dasturlariga kiritilgan 3 mingga yaqin loyihalarni vaqtida ishga tushirish masalalari belgilab berildi. Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirish borasida quyidagi muhim masalalarga e'tibor qaratish lozim:

- mamlakatimizda aholini ish bilan ta'minlash maqsadida yangi sanoat korxonalarini tashkil etish;
- mamlakatimizda sanoat korxonalarini diversifikatsiyalash va qo'shimcha tarmoqlar faoliyatini yo'lga quyish;
- mamlakatimizda sanoat korxonalarini rivojlantirishga xorijiy investorlarni jalg qilish va ularga imtiyozlar berish va boshqalar.

Tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Sanoat korxonalarida transformatsiya jarayonlarini amalga oshirish uni tashkil etish bilan bog'liq bir qator nazariy, amaliy, uslubiy va tashkiliy masalalarni o'rganishning zarurati oshib bormoqda. Transformatsiya bo'yisha tajriba bosqishma-bosqish shakllanib boradi va natijada sanoatda yildan-yilga transformatsiya jarayonlarining shuqurlashib borishi korxonalarining tez sur'atlar bilan rivojlanishini ta'minlaydi.
2. Sanoat tarmoqlari rivojlanish samaradorligini oshirish bir qator masalalar majmuuni hal qilishni talab etadi. Tarmoqda to'laqonli bozor mexanizmini tarkib toptirish, ularda zamonaviy boshqaruvni tashkil etish, tarmoq tuzilishini takomillashtirish, ishlab shiqarilayotgan mahsulotlar sifatini oshirish, zamonaviy texnika va texnologiyalarni ishlab shiqarishga tadbiq etish yo'li bilan tarmoqni modernizatsiyalash muhimdir.
3. O'zbekiston sanoati rivojlanishining asosiy maqsadi nafaqat ushbu iqtisodiyot sektorida o'sish sur'atlari oshirishga intilish, balki tabiiy resurslar salohiyatidan oqilona foydalanish orqali ustuvor tarmoqlar va ishlab chiqarishni rivojlantirish, uning zamonaviy tarkibini shakllantirish, tashqi va ichki bozorda mamlakat sanoati raqobatdoshligi va samaradorligini oshirish ushun chora-tadbirlar majmuasini shakllantirishdan iborat.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi ma'lumotlari. stat.uz



4. Mamlakatimiz sanoat taraqqiyoti uchun hududlarda ishlab chiqarish korxonalarini rivojlantirish, yangi ishlab chiqarish korxonalarini yaratish, zamонавиу dunyo talabiga mos eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan sanoat korxonalarini ochish, iqtisodiy nochor korxonalarni subsidiyalash asosida faoliyatini tiklash va investitsiyalarni jalb qilish masalalariga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2023–2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2022-yil 28-dekabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "Respublika hududlarida innovatsiya va investitsiya faoliyatini jadal-lashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2022-yil 15-oktabr 606-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "O'zbekiston respublikasi investitsiya dasturini shakllantirish tizimini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2023-yil 14-yanvar, 16-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil 4-oktabr, PQ-4477-son qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-oktyabrdagi "Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlan-tirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PF-169-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/6633676>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-noyabrdagi "Ayrim sanoat tarmoqlarida sifatlari va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-198-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/6669850>
7. Lavrenko V.D. Povishenie effektivnosti investitsionnogo proekta // Vestnik Universiteta № 9, 2014. 130-133 s.
8. Church J., Ware R. Industrial Oranization. A Strategic Approach. Irwin. 2000. – 960 p.
9. Artiqov A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik. – T.: "Sano-standart", 2014.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining statistik ma'lumotlari to'plami. <https://stat.uz/uz>

Yashi

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

